

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI O'QUV  
PREDMETI SIFATIDA**

**Sharipova Ziyoda Safarovna.**

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishmetodikasi o'quv predmeti sifatida haqida ilmiy ma'lumotlar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlari, pedagogik, fan, ta'lim, o'quvchi, matematika o'qitishning amaliy maqsadi.*

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdag'i o'quvchilarni umumiylizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiyliz metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimliligini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek, o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki, o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir:

1) o'qitish asosi bo'lgan matematika bilan; 2) pedagogika; 3) psixologiya; 4) boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ... ). Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish kursi o'quv predmetiga aylangan.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari: a) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga osbirishi; b) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi; d) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi; e) ta'limni insonparvarlashtirishi; . f) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati, bir-biriga hurmati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib berishi; g) o'qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishdan iborat. Boshlang'ich matematika kursining vazifasi muktab oldiga qo'yilgan o'quvchilarga fan asoslaridan puxta bilim berishda yangi texnologiyadan foydalanisb, ularga hozirgi zamon ijtimoiy-iqtisodiy bilimlami berish, kasb-hunarga qiziqtirish, kasblarni ongli tanlashga o'rgatish" kabi vazifalami hal qilishda yordam berishdan iborat. Shunday qilib, boshqa bar qanday o'quv fani kabi matematika boshlang'ich kursi o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi;
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi;
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalami qo'yadi:
  - a) o'quvchilarga ma'lum dasturi asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar

matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ulami matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshira bilishga o'rganishlari, nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari lozim; b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlami tarkib toptirish lozim bo'ladi. Matematikani o'rganish o'quvchilaming o'z ona tillarida nutq madaniyatini to'g'ri shakllantirish, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak; d) o'quvchilami matematik qonuniyatlar asosida haqiqatlami bilishga o'rgatish. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilaming fazoviy tasavvur qilish xususiyatlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalami qo'yadi: a) o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; b)

o'quvchilarda matematikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlami tarbiyalash. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir; d) o'quvchilarda matematik tafakkumi va matematik madaniyatni shakllantirish.

Matematika darslarida o'rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o'quvchilami atroflicha fikrlashga o'rgatadi. .. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning amaliy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalami qo'yadi: a) o'quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan eleinentar masalalami yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ulami mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalalami hal qilishga o'rgatish; b) matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarning jadvallar va hisoblash vositalaridan foydalana olish malakalarini tarkib toptirimga qaratilgan; d) o'quvchilami mustaqil ravishda matematik bilimlami egallahsga o'rgatish.

O'quvchilar, imkonи boricha, mustaqil ravishda qonuniyat munosabatlarini ochishlari, kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishtar qilishiari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishga o'rganishlari kerak. O'qitish samaradorligining zaruriy va muhim sharti o'quvchilaming o'rganilayotgan materialni o'zlashtirishlari ustidan nazoratdir. Didaktikada uni amalga oshirishning turli shakllari ishlab chiqilgan.

Bu o'quvchilardan og'zaki so'rash; nazorat ishlari. va mustaqil ishlari; uy vazifalarini tekshirish, testlar, o'tkazish kabi usullardir. Didaktikada dars turiga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariiga va h.k. bog'liq ravishda nazoratning u yoki bu shaklidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi masalalari, shuningdek, nazoratni

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

amalga oshirish metodikasi yetarlicha chuqur ishlab chiqilgan. ' Boshiang'ich mакtabda matematika o'qitish metodikasida mustaqil va nazorat ishlari, o'quvchilarda yakka (individual) yozma so'rov o'tkazishning samarali vositalari yaratilgan. Ba'zi didaktik materiallar dasturning chegaralangan doiradagi masalalarining o'zlashtirilishini reyting tizimida nazorat qilish uchun, boshqalari boshlang'ich mакtab matematika kursining barcha asosiy mavzularini nazorat qilish uchun mo'ljallangan. Ayrim didaktik materiallarda (ayniqsa, kam komplektli mакtab uchun mo'ljallangan) o'qitish xarakteridagi materiallar, boshqalarida esa nazoratni amalga oshirish uchun materiallar ko'proqdir. Boshlang'ich mакtab matematikasida barcha didaktik materiallar uchun umumiy topshiriqlarning murakkabligi bo'yicha tabaqlashtirilishidir. Bu materiallar tanlangan g'oyaga ko'ra ma'ium mavzu bo'yicha topshiriqning biror usulini bajarishi o'quvchining bu mavzuni faqat o'zlashtirganligi haqidagina emas, balki uni to'la aniqlangan darajada o'zlashtirganligi haqida ham guvohlik beradi. Amaliyotda, o'qituvchilar ko'pincha biror topshiriqning usullarini biri boshqalaridan soddaroq yoki

murakkabroq deb aytadilar. Bundan tashqari, didaktik materiallar qanchalik

san'atkorona tuzilgan bo'lmasin, ularning mazmuni va tuzilishida qanchalik sermahsul va chuqur g'oyalar amalga oshirilmasin, ular baribir barcha metodik vazifalarni tezda hal etishga qodir emas. Shunday qilib, didaktik materialarni o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish darajasini nazorat qilish usullaridan biri sifatida qarash lozim. Shu bilan birga muayyan usul mazkur sinf, rnazkur o'qituvchi uchun eng yaxshi usul bo'lishi mumkin. Shu sababli, didaktik materiallar o'qituvchini o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini aniqlash imkonini beradigan individual tekshirish uchun nazorat turlarini tuzishdan xalos eta olmaydi. Bu umummetodikaning asosiy vazifalaridan biridir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Axmedov M va boshqalar Matematika 1, Toshkent.: O'zinkomsentr, 2013
2. Ahmedov M., Ibragimov P., Abdurahmonova N., Jumayev M. E. "Birinchi sinf matematika darsligi." - T.: "Sharq".
3. A'zamov A. "Yosh matematika qomusiy lug'at"- Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 2014
4. Bikbayeva N.U va boshqalar "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi "- Toshkent.: O'qituvchi, 2014